
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumanidagi silga qarshi kurashish bo'limida qozonxona operatori lavozimida ishlovchi Amirbek Qurbonovning murojaati e'lon qilingan edi.

Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasining isitish tizimi 2023 yilda bitim asosida davlat xususiy sherikchiligiga o'tkazilgan bo'lib, shunga ko'ra davlat xususiy sheriklari tomonidan taqdim etilgan xujjatlarga asosan ekspluatatsiya xarajatlari, ko'mir sotib olish va boshqa xarajatlar uchun mablag'lar o'z vaqtida o'tkazib berilmoqda.

Davlat xususiy sheriklari tomonidan xujjatlar taqdim etilgach aprel oyi 4 guruh xarajatlari o'tkazmalariga ruxsat berilganda to'lovlar to'liq amalga oshirilishini, shuningdek mavsumiy qozonxona operatorlari davlat xususiy sherikchiligi asosida xizmat ko'rsatuvchi xususiy sheriklar ishchi xodimlari hisoblanishini hamda mehnat shartnomalari xususiy sheriklar bilan tuzilishini ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-13 11:38:23